

## OLAMNING LISONIY MANZARASI VA UNING USTIDAGI TADQIQOT YO'NALISHLARI

**Badalov Faxriddin Abdalimovich**

O'zDJTU katta o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi va tilshunoslar tomonidan uning ustida olib borilgan tadqiqot yo'nalishlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, til, mentalitet, olam, lisoniy, kategoriya, olam manzarasi, lingvomadaniyat, konseptosfera, tasavvur, bilim.

**Аннотация:** В данной статье обсуждается языковая картина мира и направления исследований, проводимых лингвистами.

**Ключевые слова:** лингвистика, язык, mentalitet, мир, язык, категория, пейзаж вселенной, лингвистика, концептосфера, воображение, знания.

**Abstract:** This article discusses the linguistic picture of the world and the direction of research conducted by linguists.

**Keywords:** linguistics, language, mentality, world, language, category, landscape of the universe, linguistics, concept sphere, imagination, knowledge.

So'nggi yillarda tilshunoslikning turli sohalarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ularni turli yo'nalishlarga ajratishni taqozo qiladi. Jumladan, til, mentalitet, olamning lisoniy manzarasi, dunyoning etnik ko'rinishi va shu kabi izlanishlar ham turli-tuman yo'nalishlarda olib borilmoda.

Dunyoda mavjud barcha tillar olamning lisoniy manzarasini ochib berishda turli-tuman lisoniy usullardan foydalanadi. Shu o'rinda etnik mentalitet tushunchasi o'ziga xos o'rin tutadi. Ta'kidlash lozimki, mentalitet olam tasviri (olamning lisoniy manzarasi) g'oyasi bilan bog'liq bo'lib, Sepir-Uorf gipotezasiga ko'ra, tilda dunyoning "sodda" modeli gavdalanib, hozirgi kunda hamma e'tirof etadigan tushunchalar qatoriga kirdi. U o'zida o'z yaratuvchisi qirralarini mujassamlashtirgan, insoniyat dunyoqarash uslubini shakllantirgan va umuman dunyoning global obrazini ifoda etuvchi kategoriya hisoblanadi. (Sepir E., 1993: 252).

Hozirgi zamon tilshunosligida olam tasviri tushunchasi orqali insoniyatning dunyo bilan munosabati, amaliy faoliyati, mushohada, tushunib yetish, ma'naviy faolligining natijasi hisoblanadigan va anglashilgan tahlil natijalari jarayonida yuzaga keladigan butun bir dunyoning global obrazi tushuniladi. Chunki, insonni o'rab turgan barcha narsa uning ongida qiymatli tushuncha bo'lib gavdalanadi. Biror bir narsani baholash uchun inson uni o'z ongidan o'tkazishi kerak bo'ladi.

Har bir til o'zida dunyoni idrok qilish va tushunishning aniq bir usulini mujassamlashtiradi. Ushbu tadqiqotda konsept tushunchasi orqali "Ideal" dunyo obyekt va insonning dunyo haqidagi madaniy-shartli taassurotlari "Borliq" ifodalanadi. Tildagi ma'no ifodalari kollektiv falsafiy qarashlar tizimiga birlashib, barcha tillarda gaplashuvchilar uchun zaruriy hisoblanadi. Turli tilda so'zlashuvchilar dunyoni "o'z tillari ta'siri ostida" turlicha tasavvur qilishadi.

Demak, har bir tilda dunyoni tasavvur qilishning o'ziga xos usullari mavjud. Dunyo tasavvuri bu dunyoning ko'zgidagi aksi emas, balki uning insonlar ongidagi obrazli talqini ekanligi ma'lum.

Shunga ko'ra "Dunyo manzarasi" individual bo'lishi ham mumkin. Shoir, rassom yoki haykaltarosh borliqni ifoda eta turib o'zining badiiy dunyosini shaxsiy dunyoqarashiga ko'ra aks ettiradi. Ichki dunyo tasavvuri tashqi dunyoga birining tili va boshqalarining barmoqlari orqali o'tadi. Dunyoning lisoniy manzarasi tushunchasi orqali esa ma'lum bir tilda so'zlashuvchi guruhning shu tildagi kishilar mentaliteti orqali dunyo tasavvurining tilda va til kategoriyalarida aks etishi tushuniladi va bunda tilning leksik tizimida borliq haqidagi bilimlar majmuasi ko'zda tutiladi.

Mentalitet tilda asosan dunyoning etnik tasviri orqali gavdalantiriladi. Dunyoning etnik tasviri ustidagi tadqiqot asosiy ikki yo'nalishda olib boriladi.

**Birinchi yo'nalishda** tilshunoslar D.S.Lixachov, Ye.S.Akovleva, L.O.Cherneyko, V.I. Xaritonov, T.V. Buligina, D.N. Shmelevlar fikrlariga ko'ra, alohida, ma'lum tilga xos konseptlar, o'z o'rnida lingvomadaniy izogloss (lingvistik xaritada: til xususiyatlari bir xil bo'lgan aholi punktlarini birlashtiruvchi chiziqlar) va izogloss bog'lamlarni ayniqsa, til stereotiplarining ijtimoiy madaniyatlarini o'rganishdir.

Horijlik tilshunoslar konseptlarning o'ziga xos konnotatsiyalari ustida tadqiqot olib borishayaptilar. Ular tomonidan turli etnik madaniyatlarda ranglar tasvirining ramzlari turlicha tadqiq qilingan. Masalan oq rang: Amerikada – "tozalik", Fransiyada – "neytrallik (holislik)", Misrda – "Shodlik", Hindistonda – "O'lim", Xitoyda – "O'lim va tozalik" kabilarni ifodalaydi [Greenwood 1993].

**Ikkinchi yo'nalish** dunyoqarashning o'ziga xos qayta yaratilishi hisoblanib, alohida til hodisasi ustida emas, balki, butun bir dialekt ustidagi tadqiqotdir. Demak olamning etnik manzarasi juda boy va xilma-xildir, ya'ni, xalqning shaxsiyatini ifodalaydigan tabiat bo'lib, inson unda yashaydi va o'z tarixini yaratadi va shu orqali milliy xarakter atalmish "stereotip"ni yuzaga keltiradi.

Lixachovning fikricha, Rossiya kengliklari rus xalqi qalbi kengligini ifodalab, rus tili leksik boyligida *yo'dan* (*dan*- kenglik, uzoq, bepoyon so'zlaridan)-so'zi turli ma'nolar – botirlik, mardlik, erkinlik, siqilish, kenglikdan mahrum bo'lish kabilarni ifodalaydi (Lixachov D., 1993: 3).

Shu o'rinda, bir qator xalqlar tillarida bir turdagi ko'rinish va holatlarni ifodalaydigan so'zlar uchraydi. Masalan, botqoq so'zi o'zbeklar, fransuzlar va ko'plab millatlar tillarida salbiy ma'nolarda qo'llanilsa, aksincha finlarda bu so'z ijobiy xususiyatlarni anglatib keladi. Ayrim izlanishlarda keltirilishicha quyosh so'zi ruslar va skandinavialiklarda ijobiy ma'nolarda qo'llanilsa, o'rta osiyo va arab mamalakatlari xalqlarida salbiy ma'nolarda qo'llaniladi deb yuritiladi. (Zavalishina Y., 1998: 17).

Lekin bizning fikrimizcha, quyosh o'rta osiyo xalqlari uchun ham qadimdan ijobiy ma'nolarda qo'llanib kelingan. Tillaridagi shunga o'xshash o'ziga xoslikni V.G.Gak bir hududda mavjud bo'lgan va ikkinchisida uchramaydigan tabiiy va madaniy realliklarni ifodalaydigan bir-biriga o'xshashlikning obyektiv faktorlari deb ataydi (Gak V., 1997: 55-65). Bu tushunchani P. Milyukov esa bir joyda biror bir so'zning ma'lum ma'noda shakllanishi yoki iqlim deb izohlaydi (Milyukov P., 1993: 528).

Yo'qoridagi tadqiqotlar bilan bir qatorda **uchinchi yo'nalish** qilib so'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, tilshunos D. Baxronova olam manzaralarining kategorial xususiyatlari; olamning lisoniy manzarasi tasvirida konsept va konseptosfera ustida ish

olib borib olam manzarasi – bu sub'ektning atrof-olam, real yoki hayotiy voqelikka oid bilim va fikr mulohazalari majmuasidir. Ilmiy tasnif va talqinlar negizida mujassam bo'lgan dunyo to'g'risidagi bilimlar aynan tilda turg'un shakllar ko'rinishida saqlanib qolgandir deb ta'kidlaydi. (Baxronova D.,2021: 56).

M.Xalimova esa olam milliy lisoniy manzarasi tasvirida til va madaniyat mushtarakligi yuzasidan tadqiqot olib borib, olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to'ldiradi, lisoniy shakllarda muhrlangan mazkur bilimlar majmuasi olamning lisoniy manzarasi deb nomlanadi olamning manzarasi tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o'rganish asosida yaratiladi, olam o'zaro munosabatdagi inson va muhit bo'lsa olam manzarasi inson va muhit haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasidir degan fikrni ilgari suradi. (Xalimova M., 2021: 888).

I. Turdiyeva olamning lisoniy manzarasi va frazeologik tasviri har qanday til alohida olam manzarasiga ega balli soniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini tuzishga majburdir, bunda til o'z aksini topgan insonning olamni o'ziga xos idroki namoyon bo'ladi til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo'lishidagi muhim omildir haqida fikr-mulohaza bildiriladi. (Turdiyeva I. T., 2022: 311).

Yo'qoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, olamning lisoniy manzarasini o'rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o'zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan, odamning konseptual manzarasi, masalasi bilan chambarchas bog'liqdir, ya'ni, olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam mazarasini aks ettiradi va uning ustida qancha ko'p tadqiqot olib borilsa uning qirralari va albatta yangi-yangi tadqiqot yo'nalishlari paydo bo'laveradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxronova D. Olam manzaralarining kategorial xususiyatlariga doir. Xorijiy filologiya. N1. Toshkent.2021.
2. Baxronova D. Olamning lisoniy manzarasi tasvirida konsept va konseptosfera. Xorijiy filologiya. N3. Toshkent.2019.
3. Гак. В.Г. Особенности фразеологизмов в русском языке// Вопросы языкознания. – 1997. - N 5.
4. Завалишина Ю.Г. Зоонимы и фитонимы в русской и английской паремиологии в аспекте этнического менталитета. Канд. Дисс. 1998.
5. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия АН. Серия языка и литературы. Т. 52. - 1993.
6. Милуков П.Н. Очерки по истории русской культуры. Т.1. - М.: Прогресс., 1993.
7. Сепир Е. Избранные труды по языкознанию и культурологии. - М., 1993.
8. Turdiyeva I. Olamning lisoniy manzarasi va frazeologik tasviri. Eurasian journal of academic research. 2022.
9. Xalimova M. Olam milliy lisoniy manzarasi tasvirida til va madaniyat mushtarakligi. Academic search Uzbekistan. V 2., T., 2021
10. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
11. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.

12. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.
13. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
14. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – Т. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
15. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
16. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
17. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
18. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
19. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
20. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
21. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
22. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
23. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
24. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
25. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).